



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

## Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

# Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **27 024** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1 525** taga kamaygan yoki **5,3 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga **13,3** birlikni tashkil qildi.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-iyunda **3 126** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **129,3 %** ga kam demakdir.

**Yuridik shaxs** – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi

**2019-2023- yillar 1- iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), birlikda**



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Shahar va tumanlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.

2023- y.

8 186	Buxoro sh.	7 060
2 980	Gijduvon	2 750
2 522	Romitan	2 592
2 244	Buxoro	1 970
2023	Jondor	2 173
1 615	Kogon	1 676
1 655	Peshku	1 517
1 642	Shofirkon	1 569
1 524	Vobkent	1 625
1 392	Qorakol	1 421
1 189	Kogon sh.	1 077
908	Olot	951
669	Qorovulbozor.	643

2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **27 024** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 126** tani tashkil etdi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Buxoro shahrida **7 060** tani yoki jamiga nisbatan **26,1%** ni tashkil etdi.

## 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

**28 549**

2022- y.

**27 024**

2023- y.

**18 149**

2019- y.

**21 787**

2020- y.

**26 421**



2021- y.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbatli, birlikda)\*

Qorovulbozor	<b>32,6</b>
Buxoro sh.	24,2
Kogon	<b>20,1</b>
Romitan	17,3
Kogon sh.	<b>16,8</b>
Jondor	11,8
Peshku	<b>11,7</b>
Buxoro	11,2
Vobkent	<b>11,1</b>
Olot	<b>9,2</b>
G'ijduvon	<b>8,6</b>
Shofirkon	8,5
Qorako'l	<b>8,3</b>

Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbatli 1 iyul holatiga, birlikda



2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1 000 aholiga nisbatan **13,3** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **1,3** birlikka ko'paygan.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **32,6** birlik, Buxoro shahrida **24,2** birlik, Kogon tumanida **20,1** birlik, Romitan tumanida **16,8** birlikka yetdi.


\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati, birlikda


## Eng yuqori ko'rsatkich

**Qorovulbozor tumani**  
– 32,6 birlik.




## O'rta ko'rsatkich

**Peshku tumani**  
– 11,7 birlik.



## Eng past ko'rsatkich

**Qorako'l tumani**  
– 8,3 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 32,6 birlik, Buxoro shahrida 24,2 birlik, Kogon tumanida 20,1 birlik, Romitan tumanida 17,3 birlik, Kogon shahrida 16,8 birlik Jondor tumanida 11,8 birlik, Peshku tumanida 11,2 birlik, Vobkent tumanida 11,1 birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariغا muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**2023- yil 1- iyul holatiga har 1 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda**

### Kogon shahri

16,8

### Kogon tumani

20,1

### Qorovulbozor tumani

32,6

17,3

Romitan tumani

24,2

Buxoro shahri

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


**Yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

2022- y.

2023- y.

577	Buxoro sh.	576
243	Romitan	323
128	Qorako'l	309
263	G'ijduvon	294
177	Kogon	266
201	Jondor	245
147	Vobkent	234
104	Peshku	176
205	Buxoro	170
83	Olot	155
90	Kogon sh.	155
140	Shofirkon	152
59	Qorovulbozor	71

**2023- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo‘yicha ulushi, % da**




2023- yilning yanvar-iyunda shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Buxoro shahri – **18,4** %, Romitan tumani – **10,3** %, Qorako'l tumani – **9,9** %, G'ijduvon tumani – **9,4** %, Kogon tumani – **8,5** %, Jondor tumani – **7,8** %, Vobkent tumani – **7,5%** hissalariga to‘g‘ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1 080** ta, sanoatda **445** ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **460** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Buxoro shahrida **576** ta, Romitan tumani **323** ta, Qorako‘l tumani **309** ta, Gijduvon tumani **294** ta, Kogon tumanida **266** ta hamda Jondor tumanida **245** ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **14 937** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **4 867** (yoki **32,6 %**) ta, xizmatlar sohasida – **3 954** (yoki **26,5 %**) ta, sanoat sohasida – **2 914** (yoki **19,5 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 097** (yoki **14,0 %**) ta va qurilish sohasida – **1 105** (yoki **7,4 %**) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




■ 2022- y. ■ 2023- y.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


**2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mldr. so‘m**

Buxoro sh.	831,7
Shofirkon	732,8
Kogon	574,5
G’ijduvon	535,8
Qorovulbozor	461,0
Jondor	446,0
Vobkent	328,8
Qorako'l	307,7
Kogon sh.	274,7
Romitan	274,5
Buxoro	218,2
Olot	186,0
Peshku	175,7

2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 377,4** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (**861,7** mldr. so‘m), Shofirkon (**732,8** mldr. so‘m), Kogon (**574,5** mldr. so‘m), va G’ijduvon (**535,8** mldr. so‘m) va Qorovulbozor (**461,0** mldr. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Peshku tumanida (**175,7** mldr. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

## 2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2023- yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **36,6 %** ni tashkil etdi.




**2023- yilning yanvar-iyunida shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Shofirkon tumani (**95,4 %**), Olot tumani (**93,2 %**), Jondor tumani (**86,9 %**), Vobkent tumani (**75,0 %**), Kogon tumani (**70,3 %**), Buxoro sh. (**55,4 %**), Qorako'l tumani (**55,2 %**), Peshku tumani (**49,1%**), Kogon sh. (**48,7%**), va Buxoro tumani (**48,2%**) tashkil etdi.

Shofirkon	95,4
Olot	93,2
Jondor	86,9
Vobkent	75,0
Kogon	70,3
Buxoro sh.	55,4
Qorako'l	55,2
Peshku	49,1
Kogon sh.	48,7
Buxoro	48,2
G'ijduvon	45,0
Romitan	36,1
Qorovulbozor	7,1

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



**2023- yilning yanvar-iyunida shahar va tumanlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi**

Gʼijduvon	405,4	100,0
Peshku	310,3	100,0
Jondor	256,5	100,0
Vobkent	228,1	100,0
Kogon	358,9	99,1
Qorakoʼl	183,5	97,9
Buxoro	316,7	97,3
Shofirkon	321,3	95,4
Buxoro sh.	952,1	83,0
Olot	223,4	73,4
Romitan	320,3	65,6
Kogon sh.	125,3	65,2
Qorovulbozor	55,7	30,7

hajmi, mlrd. soʻmda


ulushi, % da

2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 057,7** milliard soʻmmi yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **85,9** % ini tashkil etdi. Oʼsish surʼati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **106,1** % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (**952,1** mlrd. soʻm), Gʼijduvon (**405,4** mlrd. soʻm), Kogon (**358,9** mlrd. soʻm), Shofirkon (**321,3** mlrd. soʻm), Romitan (**320,3** mlrd. soʻm), Buxoro (**316,7** mlrd. soʻm) hamda Peshku (**310,3** mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda



2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **6 928,2** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **56,2 %** ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **126 %** ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Buxoro sh. (**1 691,0** mlrd. so‘m), Buxoro (**896,6** mlrd. so‘m), Gijduvon (**782,7** mlrd. so‘m), Peshku (**658,6** mlrd. so‘m), Qorako'l (**635,0** mlrd. so‘m), Kogon (**570,9** mlrd. so‘m), Romitfan (**354,7** mlrd.so‘m) hamda Vobkent (**332 ,4** mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



## 2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi

### Buxoro sh.


<b>59,0</b>	<b>1 691,0</b>
<b>Buxoro</b>	
<b>56,8</b>	<b>896,6</b>
<b>Gijduvon</b>	
<b>82,6</b>	<b>782,7</b>
<b>Peshku</b>	
<b>92,3</b>	<b>658,6</b>
<b>Qorako'l</b>	
<b>635,0</b>	<b>635,0</b>
<b>Kogon</b>	
<b>87,4</b>	<b>570,9</b>
<b>Romitfan</b>	
<b>53,6</b>	<b>354,5</b>
<b>Vobkent</b>	
<b>15,6</b>	<b>332,4</b>
<b>Jondor</b>	
<b>83,1</b>	<b>269,4</b>
<b>Qorovulbozor</b>	
<b>81,3</b>	<b>268,0</b>
<b>Olot</b>	
<b>48,4</b>	<b>202,6</b>
<b>Shofirkon</b>	
<b>41,6</b>	<b>167,4</b>
<b>Kogon sh.</b>	
<b>99,1</b>	<b>73,7</b>
<b>70,6</b>	

■ hajmi ■ foizi

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **13 779,9** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,8** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **103,8** % ni tashkil qildi.

## 2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Jondor (**1 779,5** mlrd. so‘m), Buxoro (**1 624,9** mlrd. so‘m), G‘ijduvon (**1 537,1** mlrd. so‘m), Qorako‘l (**1 502,0** mlrd. so‘m), Peshku (**1 238,6** mlrd. so‘m) hamda Vobkent (**1 206,2** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Olot	<b>1 080,3</b>	99,9
Vobkent	<b>1 206,2</b>	99,9
Buxoro	<b>1 624,9</b>	99,8
Jondor	<b>1 779,5</b>	99,7
Shofirkon	<b>1 201,7</b>	99,6
G‘ijduvon	<b>1 537,1</b>	99,2
Kogon sh.	<b>50,7</b>	99,0
Buxoro sh.	<b>165,3</b>	98,9
Qorako‘l	<b>1 502,0</b>	98,8
Peshku	<b>1 238,6</b>	98,8
Romitan	<b>1 102,5</b>	96,6
Kogon	<b>910,8</b>	96,0
Qorovulbozor	<b>380,3</b>	94,1

hajmi, mlrd. so‘mda →  
 ulushi, % da →

## 2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **6 791,4** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,9 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **101,5 %** ni tashkil qildi.


## 2023- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Buxoro sh.	<b>1 802,7</b>	84,6
G’ijduvon	<b>1 214,2</b>	96,8
Qorako’l	<b>630,9</b>	99,1
Buxoro	<b>582,2</b>	99,6
Jondor	<b>494,7</b>	99,0
Romitan	<b>490,6</b>	99,3
Shofirkon	<b>368,7</b>	99,0
Kogon sh.	<b>288,5</b>	98,2
Vobkent	<b>259,5</b>	98,7
Peshku	<b>233,2</b>	72,9
Olot	<b>200,4</b>	98,2
Qorovulbozor	<b>127,8</b>	99,5
Kogon	<b>98,0</b>	47,2

hajmi, mlrd. so‘mda      ulushi, % da

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (**1802,7** mlrd. so‘m), G’ijduvon (**1214,2** mlrd. so‘m), Qorako’l (**630,9** mlrd. so‘m), Buxoro (**582,2** mlrd. so‘m), Jondor (**494,7** mlrd. so‘m), Romitan (**490,6** mlrd. so‘m) va Shofirkon (**368,7** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


**2018 va 2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mlrd. so‘m**




2018- y.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyunida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mldr. so‘mda



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 350,0** mldr. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **59,6%** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **106,5 %** ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Buxoro shahri (**1 353,0** mldr. so‘m), G‘ijduvon (**887,2** mldr. so‘m), Jondor (**371,2** mldr. so‘m), Buxoro (**350,5** mldr. so‘m), Romitan (**342,4** mldr. so‘m), Peshku (**334,7** mldr. so‘m) va Vobkent (**308,2** mldr. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari  
(yanvar-iyun oylarida)

2 661,9	Savdo xizmatlari	29,6
2 047,2	Moliyaviy xizmatlar	22,8
1 823,1	Transport xizmatlari	20,3
484,8	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	5,4
361,1	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar	4,0
350,4	Yashash va ovqatlanish xizmatlar	3,9
267,7	Boshqa xizmatlar	3,0
204,6	Shaxsiy xizmatlar	2,3
182,3	Ijara xizmatlari	2,0
179,2	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo'yicha xizmatlar	2,0
170,1	Sog’liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,9
169,2	Ko’chmas mulk bilan bog’liq xizmatlar	1,9
78,6	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,9

*Hajmi, mldr. so‘mda*


*Ulushi, foizda*

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – 29,6 % (2 661,9 mldr. so‘m), moliyaviy xizmatlar – 22,8 % (2 047,2 mldr. so‘m), transport xizmatlari – 20,3 % (1 823,1 mldr. so‘m) hamda ta’lim sohasidagi xizmatlarida 5,4 % (484,4 mldr. so‘m)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda 0,9 % (78,6 mldr so‘m) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Ulushi, % da



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

**2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


**2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi**

Olot	100,0	6,7
Buxoro	100,0	3,0
Jondor	100,0	0,8
Peshku	98,7	4,4
Shofirkon	89,4	3,4
Kogon	68,9	8,9
Romitan	63,3	8,2
Qorako'l	62,4	6,4
Kogon sh.	60,2	3,4
Buxoro sh.	49,2	15,2
Vobkent	15,1	1,1
G’ijduvon	8,2	1,3
Qorovulbozor	6,6	1,8

hajmi, mlrd. so‘mda

ulushi, % da


2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **66,2** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **45,1** % ini tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-iyunida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Olot, Buxoro, Jondor tumanlarda – **100** %, Peshku tumanida – **98,7** %, Shofirkon tumanida – **89,4** %, Kogon tumanida – **68,9** %, Romitan tumanida – **63,3** %, Qorako'l tumanida – **62,4** %, Kogon sh.– **60,2** % va Buxoro shahar – **49,2** % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Qorovulbozor tumani– **6,6%** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

**2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**



2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **203,1** million AQSH dollarini yoki jami importning **40,1** % ni tashkil etdi.


**2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



2023- yilning yanvar-iyunida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Olot tumani – **100,0%**, Jondor tumani – **99,5%**, Romitan tumani – **99,2** %, Vobkent tumani – **98,1** %, Kogon sh.– **97,3** %, Buxoro shahar – **96,1** %, hamda Shofirkon tumani **93,8** % ni tashkil etdi.


Olot	100,0
Jondor	99,5
Romitan	99,2
Vobkent	98,1
Kogon sh.	97,3
Buxoro sh.	96,1
Shofirkon	93,8
Qorako'l	83,1
Kogon	69,2
G'ijduvon	68,5
Buxoro	65,7
Peshku	24,2
Qorovulbozor	1,9

# Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




90,7 %

**Yuk  
tashishda**




74,5 %

**Yuk  
aylanmasida**



97,1 %

**Yo'lovchi  
tashishda**



98,1 %

**Yo'lovchi  
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **90,7** % ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,6%** ni tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **74,5** % ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,6** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,1** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,7** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,1** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,6** % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




2023- yil **II** chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1 585** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **640 (40,4 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **849 (53,6 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **96 (6 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **38,5 % (611 ta)**, xizmatlar sohasida – **32,1 % (509 ta)**, sanoatda – **13,2 % (209 ta)**, qurilishda – **8,5 % (134 ta)**, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **7,7% (122 ta)** ni tashkil etdi.

**2023- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi**

448	Buxoro sh.	28,3
68	Kogon sh.	4,3
50	Olot	3,2
118	Buxoro	7,4
88	Vobkent	5,6
177	Gijduvon	11,2
95	Kogon	6,0
75	Qorakol	4,7
32	Qorovulbozor	2,0
89	Peshku	5,6
156	Romitan	9,8
108	Jondor	6,8
81	Shofirkon	5,1


**Hajmi, mlrd. so‘mda**

**Ulushi, foizda**

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro sh. (**448** ta), Gijduvon (**177** ta), Romitan (**156** ta), Buxoro (**118** ta) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilning II choragida **780** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning II choragiga kelib esa **1 055** taga yetgan yoki 2018- yilning II choragiga nisbatan **275** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **855** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyunida **1 612** ta yoki **757** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **98** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **185** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **87** taga oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning II choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**



qulay

qoniqarli

qoniqarsiz


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning II choragida **395** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning II choragiga kelib esa **640** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **245** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning II choragida **435** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning II choragida **849** ta yoki **414** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2018- yilning II choragida **51** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **96** tani tashkil etib, **45** taga oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning II choragida **39,9** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilga kelib esa **40,4** % ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **0,5** % birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018- yilda **53,2** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning II choragida **53,6** % yoki **0,4** % birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **6,9** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilga kelib, bu ko‘rsatkich **6,2** % ga yetgan yoki **0,7** % ga ko‘paygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning II choragida **39,9** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilga kelib esa **40,4** % ga yetgan yoki 2018- yilning **II** choragida nisbatan **0,5** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2018- yilning II choragida **53,2** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-martida **53,6** % yoki **0,4** % birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2018- yilning II choragida **6,9%** ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning **II** choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **6,2** % yoki **0,7** % birlikka oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **42,5** % ni, xizmatlar sohasida – **41,8** % ni, savdoda – **41,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **65,6** % ni, savdoda – **54,3** % ni, xizmatlar sohasida – **52,5** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – **10,5** % ni, qurilishda – **8,2** % ni, xizmatlar sohasida – **5,7** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin **3** oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **56,7** % ni, savdoda – **54,3%** ni. va xizmat sohasida – **54,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin **3** oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **47,5%** xizmatlar sohasida – **44,0** % ni, sanoat – **43,6** % ni, tashkil etdi.

Yaqin **3** oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3,3** % ni, sanoatda – **3,3%** savdoda – **3,0** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da**


	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiyligi aylanmasi</b>	42,4	43,2	6,5
<b>Band bo‘lganlar soni</b>	22,6	66,0	3,3
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	34,2	53,0	4,7
<b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari</b>	29,2	57,4	5,0
<b>Raqobat muhiti</b>	37,1	50,5	3,9

	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiyligi aylanmasi</b>	51,5	45,7	2,8
<b>Band bo‘lganlar soni</b>	28,5	69,5	2,0
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	41,8	55,5	2,7
<b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari</b>	36,9	60,0	3,1
<b>Raqobat muhiti</b>	44,4	53,2	2,4


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash,  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



**2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin  
3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da**



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli